

“ISYON VA ITOAT” ROMANI VA ADABIY-TANQIDIY QARASHLAR

Ernazarov Rahmon

Katta ilmiy xodim

SamDU turkologiya ilmiy tadqiqotlar instituti

Samarqand, O‘zbekiston

E-mail: rahmonernazarov94@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon adabiyotidagi mavjud an’analarning keyingi yillar romanchiligiga ham o‘z ta’siri haqida so‘z yuritiladi. “Isyon va itoat” romani haqidagi mulohazalardan ko‘rinadi-ki, har bir adabiyotshunos romanga o‘ziga xos tarzda yondashadi. Roman sujetidagi qahramonlar iztirobi, ularning o‘zini anglash yo‘lidagi murakkab hayot yo‘lini bosib o‘tishi ham mahorat bilan talqin etilgan. “Isyon va itoat” romanida esa isyon va itoatning inson botinidagi kurashlari orqali yoritishga intilganligini kuzatamiz. Asardagi Tabib, Akbar obrazlaridagi o‘ziga xosliklar bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy muhitdagi o‘rni orqali, mulohazalari, ruhiyatidagi ziddiyatlar zamirida isyon va itoat tushunchalari talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: roman, isyon va itoat, botin, sujet, kompozitsiya, mulohaza, obraz.

Mamlakatimiz milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda ham jiddiy evrilishlar yuzaga kela boshladi. Adabiyot sobiq ittifoq davrida mafkura ta’sirida qolib ketganligi sababli jahon ma’naviyati va estetik madaniyati ta’sirida rivojlanmay, faqat bir tomondangina tahlil qilinar, o‘rganilar edi. Ayniqsa, ushbu hodisani tamomila yangicha qiyofada o‘zlashtirish mustaqillik davrida amalga oshirila boshladi. Shuningdek, mustaqillik davri adabiyoti buyuk an’analarni davom ettirgan holda, Cho‘lpon, Qodiriy kabi millat va ma’naviyat gultojlari ijodida shakllangan milliy romanchiligimiz yana o‘z qiyofasiga ega bo‘la boshladi. Adabiy tanqidchilik sof estetik nazariy ilmlar bilan badiiyat solnomalarini tekshirishni bosh mezon qilib oldi. Bunga esa, jahon adabiyotining nodir durdonalari ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgani ayni haqiqat. Biz olib borayotgan tadqiqotimizda, “Isyon va itoat” romani mohiyati, unda jilvanayotgan inson qismati va taqdirining nechog‘li iztirobli va ayanchli bir hol ekanligini tahlil qilish barobarida, adib izlanishlarini baholash ham ko‘zda tutilgan. O‘zining bir qator qissa va hikoyalari, romanlari, she’r va adabiyotshunoslik borasidagi jiddiy tadqiqotlari bilan kitobxonlar muhabbatini qozongan hamda adabiyotshunoslar ishonchini oqlagan, nazariga tushgan Ulug‘bek Hamdam adabiyotimizga kirib kelganiga ham mana o‘n

besh yildan oshdi. Bu oraliqda juda oz fursat ichida adabiyot olamida yuksak mavqega ko'tarilish barchaga birdek nasib etavermaydi. Romaniy tafakkur tizimidagi o'zgarishlar nasrimizga ham sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Keyingi davr romanlarining eng xarakterli xususiyati shaxs erki, botiniy olamidagi ziddiyatlar, imon va e'tiqod, olam va odam o'rtasidagi ziddiyatlarni haqqoniy aks ettirilishi bilan alohida ajralib turadi. Hayot, ijtimoiy hayot, shaxs qalbidagi iztirobu quvonchlarni tasvirining o'ziyoq, adabiyotimizdagi tub o'zgarishlardan dalolat beradi. Axir yillar davomida "ijobiy" qahramon obrazini yaratish, ma'lum bir davr yoki tizimga xizmat qiluvchi obrazlar tizimi shakllanib kelgani bugungi kunda hech kimga sir emas! Ammo bugungi shaxs tafakkuri, olam haqidagi qarashlari, o'zlik yo'lidagi iztiroblarining talqini bilan bir qatorda, inson olamidagi ziddiyatlarni aks etishining o'ziyoq bu jarayondagi tasvir usulining o'zgarishidan dalolatdir. Adibning "Muvozanat" romanida inson xarakteridagi ijobiy va salbiy xislatlarning teran talqini kitobxonni hayotga jiddiyroq munosabatda bo'lishga undaydi.

Adabiyotshunos olim H. Karimov qayd qilganidek: "...Muvozanat" romani juda vaqtida yozilgan asardir. Haqiqatdan ham, mustaqillikning dastlabki arafasida odamlar ham zohiriy, ham botiniy muvozanatini yo'qotib, ancha afgor holga tushib qolishgandi, roman xuddi shuning mohiyatini ochib beradi"[1,279].

Darhaqiqat, asar qahramonlari ziyoli shaxslar bo'lib, ularning o'ziga xos olami, hayotdagi o'rni, o'zligini anglashdagi murakkab qirralari teran talqin etilgan.

"Isyon va itoat" romanida esa isyon va itoatning inson botinidagi kurashlari orqali yoritishga intilganligini kuzatamiz. Asardagi Tabib, Akbar obrazlaridagi o'ziga xosliklar bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy muhitdagi o'rni orqali, mulohazalari, ruhiyatidagi ziddiyatlar zamirida isyon va itoat tushunchalari talqin etiladi.

Roman haqida adabiy tanqidchilimizda turfa xil fikrlar, bir-birini izohlab to'ldiruvchi, ammo zid tushunchalar va mulohazalar ham uchraydi. Haqiqat bahslarda tug'ilgani kabi roman haqida mulohazalar, qarashlar qayd etilayaptimi, shuning o'ziyoq asarning yashovchanligidan dalolat beradi. Roman haqida so'z yuritgan adabiyotshunos H.Karimov yozadi: "...Albatta, Ulug'bek Hamdam itoatning mohiyatini shunday angelaydi, biroq badiiy talqinga kelganda, uning ko'lami torayib qolgan, ya'ni Ollohga itoat etishning mohiyati, uning samarasi aniq tasvirda epik ko'lamda o'z ifodasini topmagan. Bu narsa tabib obrazidagina ko'rinadi, lekin uning ezgu ishlari faqat davolashgina, falsafiy qarashlari esa hayotiy tartib qoidalarga so'zsiz bo'ysunish tartibidan iborat bo'lib qolgan. Mazkur hol aniq tasvirda bo'lmay, bayonda bo'lgani uchun kishini shuuriga uncha yetib bormaydi"[2,282-283].

Axir romanda qahramonlar ma'naviy olami voqealar silsilasida juda go'zal tasvirlar orqali yoritilganligi butun sujet chizig'ida o'z aksini topganligiga adabiyotshunos olim nima uchundir diqqatini qaratmaydi.

Tabib qalbidagi iztiroblar o'quvchini hayotga, olamga teranroq qarashga undaydi. Uning botinidagi ziddiyatlar o'quvchi qalbini iztirobga soladi: "Hammasi o'zimdan o'tdi", deb keyin-uzun yillar qamoqda o'tirganda o'zini koyir edi-yu, aslida professorning yerning tagida qimirlagan ilonni payqaydigan hushyorligi bor gap edi... «Ammo... ammo shundan keyin payimga tushgan» deb mulohaza yuritar edi u»[3,38].

Tabib chekkan iztiroblarning hamma-hammasi "Hammasi o'zimdan o'tdi" degan tushunchada mujassamlashgan. Axir uning shu fikrida yillar davomida chekkan azoblari jamuljam. O'quvchida uning hayotini mulohaza qilishga, sabablarini anglashga undaydi. Yoki "Ish vaqtimda keling, deyiladigan kasallar o'zi boshqa bo'ladi. Ular o'zi bilib mavridida kelishadi. Lekin dard qo'qisdan xuruj qilib qolganda, bemor najot istab eshigingni qoqib turganda, qaysi yuz bilan uni qaytarib bo'ladi. Bundan keyin sen kimsan? Odammi, vrachmi?.." der edi u hammadan oldin o'ziga-o'zi"[3,60].

Tabibdagi insoniy fazilat bilan bir vaqtda o'z kasbiga bo'lgan mehr tushunchasining o'zaro mujassam ekanini guvohi bo'lamiz. Yillar davomida iztirobda yashagan Tabibning qalbidagi isyon bo'lsa-da, odam, olamga muhabbati yetakchilik qiladi. Shuning uchun insonga bo'lgan muhabbati yetakchilik qilganligi bois, ularga madadkor bo'lishga intiladi.

To'g'ri, undagi isyon ma'lum bir tizimga, uning ba'zi vakillariga nisbatan yetakchilik qilsa-da, o'z kasbining yetuk vakili sifatida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda adabiyotshunos olim D. Quronovning quyidagi fikrlariga e'tibor qarataylik: "... ha "Isyon va itoat"ni "Muvozanat"dan ko'ra xushroq qabul qilganlarning bo'lgani bor gap... "Isyon va itoat"ning chop etilishi P. Koeloning "Alkimyogar" romani uyg'otgan shov-shuvlar hali tinib ulgurmagan bir paytga to'g'ri kelgandi. Albatta, dunyoning ko'plab tillariga o'girilib, millionlab tirajda chop etilgan chin ma'nodagi bestseller qarshisida atigi ikki ming nusxada bosilgan "Isyon va itoat" – misoli dengizga tushgan tanga. Shunday bo'lsa-da, asar beiz ketmadi..."[4,26].

Darhaqiqat, asar haqidagi adabiy-tanqidiy mulohazalarning o'ziyoq yuqoridagi fikrni asoslaydi.

Jahon adabiyotidagi mavjud an'analarning keyingi yillar romanchiligiga ham o'z ta'siri mavjud. "Isyon va itoat" romani haqidagi mulohazalardan ko'rinadi-ki, har bir adabiyotshunos romanga o'ziga xos tarzda yondashadi. Roman sujetidagi qahramonlar iztirobi, ularning o'zini anglash yo'lidagi murakkab hayot yo'lini bosib o'tishi ham mahorat bilan talqin etilgan.

Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev qayd qilganidek: "Aslida esa, chinakam badiiy asar maishiy turmushni yaxshilash yo'llarini ko'rsatish uchun emas, balki kishini uning adoqsiz muammolaridan chalg'itish, odamni, bir zum bo'lsa-da, ovutish uchun yaratiladi... Yana bir jihati shuki, adabiyot, obyektiv ravishda, odam hayotini

yengillatishga emas, balki murakkablashtirishga xizmat qiladi. Usiz ham turmush tashvishlariga ko‘mlib yotgan odam adabiy asarlardagi o‘ziga daxli yo‘q kishilar taqdiri bilan tanishadi va ularni deb iztirob chekadi”[5,226]. Adib bu izlanishlari natijasida o‘z aytar so‘zi, maqsadi, aniq va ravon bahstlab maqola va suhbatlari ila e‘tiborga tushdi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Butun umr yozishni o‘ziga shior qilib, yozganlari bir yil o‘tmasdanoq unutilib ketayotgan adib va shoirlar adabiyot olamida kammi? Albatta, bunday nomsiz-nishonsiz yo‘qolib ketishlar faqatgina qobiliyatini ko‘z-ko‘z qilish uchun qo‘liga qalam olgandek tuyuladi. Ulug‘bek Hamdamning ilk ijodi “Yolg‘izlik” qissasida insonning jamiyatdagi o‘rni va o‘z mavqeyini asrab qolishga intilgan qahramon qiyofasi gavdalanadi. “Muvozanat” romanida esa shu bugunimizda, atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar qalamga olinadi. Shuning uchun ham ushbu roman taniqli adabiyotshunoslar orasida qizg‘in bahs uyg‘otdi va o‘zining munosib bahosini oldi. M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov kabi ustoz adabiyotshunoslar hamda P.Qodirovdek katta adiblarimiz romanga yuksak baho berdilar. Mazkur asar borasida O.Sharafiddinov: “Romanni o‘qib chiqar ekanman, bugungi kun odamini tasvirlashda hali realizmning ochilmagan imkoniyatlari ko‘p ekaniga imon keltirdim”[6,244] deydi. Akademik M.Qo‘shjonov esa quyidagicha baholaydi: “Muallifning maqsadi roman chop qildirib, ko‘zga tanilish emas. U hayot haqida, hayotda ro‘y berayotgan keskin burilishlar haqida, o‘ta ziddiyatli voqealar xususida chuqur o‘ylaydi. Faqat o‘ylaydigina emas, nimalardandir qanoat hosil qilsa, nimalardandir ko‘ngli to‘lmaydi, bular xususida bezovta bo‘ladi, kuyunadi, qayg‘uradi. Mana shu kuyunish va qayg‘urishlar uni qo‘liga qalam olishga undaydi”[7,3-5]. Ustoz adibimiz P.Qodirov e‘tiroficha: “Yaqin o‘n yillar ichida U.Hamdamning “Muvozanat” romanidek asar o‘qimadim. Roman juda yaxshi yozilganligi o‘ziga xos uslub va g‘oyaviy badiiy jihatdan barkamolligi menda juda ajib taassurot uyg‘otdi”[8,89]. Binobarin, adib izlanishlarini qo‘llab-quvvatlovchilar, ya‘ni, badiiy niyatiga xayrixohlar ham bo‘ldi va aksincha, noto‘g‘ri talqin qiluvchilar safi ham ancha kengaydi. «Erkin fikr zamonida yashayotgan odamzot jamiyat badiiy tafakkurini xolislik bilan qabul qilar ekan, u yoki bu darajada salbiy qarashlarning bo‘lishi tabiiydir. U.Hamdamning asarlarida bosh fenomen inson va uning qismati. Yozuvchi jamiyat hayotini zimdan nigoh solib kuzatadi. Baayni esa o‘ta xolislik bilan qahramon kechinmalarini tasvirlay boshlaydi. Bu esa tabiiy bir yo‘nalishga tutashib, kitobxon diqqat e‘tiborini o‘ziga tezda jalb etadi»[8,6]. Ushbu sifatlar U.Hamdam ijodiga xos muhim fazilat ekanligi barchamizga ayondir. Hozirgi adabiy jarayonda ancha yillardan beri qizg‘in bahslarga turtki bo‘lib kelayotgan adib asarlarini o‘qigan kitobxon tasavvurida uning yaratgan qahramonlaridan ibrat olib yashay boshlaydi. Ibrat olsa arziydigan, o‘z iymon va e‘tiqodiga sodiq qolib, hayotini ilm yo‘liga safarbar etishga yangi jamiyat tarixini

yaratishni bir umr diliga maqsad qilib yashagan Yusuf obrazi istiqloq davri qahramoni deya bema'lol aytishimiz mumkin. Chunki, asarda Yusuf boshqa o'rtoqlariga o'xshab, bozorga tez singishib ketolmadi. Lekin jamiyatdagi o'zining mavqe va o'rnini saqlab qolish maqsadida e'tiqodida sobit tura olganligi bilan ham boshqalarga o'rnak bo'la oladi. To'g'ri, Yusufning ayrim jihat va xislatlarini chuqur anglab, boricha qabul qilish kerak. Uning o'z o'rtog'i xotini bilan don olishgan lavhalar kitobxonda biroz e'tiroz uyg'otishi, tabiiy. Asarda uning yolg'izligini bartaraf etish maqsadida yozuvchi shunday yo'l tutmaydi. Asarda ifoda vaziyati shuni keltirib chiqaradi. Bu borada Otaulining, S.Sodiqning tanqidiy qarashlarida masalaga faqat bir tomondan yondashilganligini kuzatamiz. Chunki har qanday yozuvchining tadrijiy takomillashib boradigan uslubiy o'ziga xosligi avvalgi asarlari misolida qiyosan tadqiq etiladi. Adabiyotshunos D.Quronov e'tirof etishicha: "Muvozanat" roman janriga qo'yiluvchi risolaviy talablarga to'la javob berib, milliy tariximizdagi burilish pallalarini, hayoti shunday pallalarga to'g'ri kelgan insonlar ruhiyatidagi evrilishlarni keng epik ko'lamda aks ettirilgan "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Lolazor" singari barmoq bilan sanarli qatordan joy oldi. Darvoqe, shularni e'tiborda tutib, o'n uch yil avval, qo'lyozmani qaytarish chog'i muallifni roman bilan tabriklarkan, uning "Roman desam... bo'ladimi?" degan savoliga qat'iy qilib: "Roman. Juda yaxshi roman!" - degandim va hamon shu fikrda sobitman" [8,14-15] deydi. Yana bir olim deydi: "U.Hamdamning "Muvozanat" nomli romani yodimga tushdi: asarni o'qishni boshlab oxirigacha yetkazolmaganim, roman negadir "tortib ketmagani"ni esladim va buning sababi asar tili bilan bog'liq emasmikin, degan o'yda kitobni qayta o'qidim. Afsuski, bu taxmin o'qish jarayonida tasdiqlandi"[9,107]. Ko'rinadiki, asarga munosabat bildiruvchilar u yoki bu darajada o'z mulohazalarini ro'y-rost ifoda etmoqda. Lekin masalaga jiddiy yondashilsa, A.Rasulov e'tiroficha: "yaqin yillar ichida T.Malikning "Shaytanat"idek ko'p o'qiladigan asar uchratmadim. "Muvozanat" esa to'la ushbu fikrlarni tasdig'ini berib turibdi. Roman juda ta'sirli va zamondoshlarimiz tafakkuridagi keskin evrilishlarni jiddiy tasvirlab bergani bilan ham qadrlidir"[10,111] -deydi. M.Choriyeva esa quyidagicha dalillashga urinadi: "Men esa "Muvozanat" romanida kitobxonni muvozanatdan chiqaradigan yangilik ko'rmadim"[11,5]. Adabiyot nazariyasi va tarixidan ma'lumki, badiiy asar u yoki bu darajada har bir kitobxonga har xil ta'sir ko'rsatadi. M.Choriyevaning fikrlariga kelsak, umumkitobxon tilidan aytgan ochiq-oydin mulohazalari hech qanday olimona qarashlarni berolmaydi. Chunki har kim badiiy asardan keragicha xulosa chiqaradi. Har kim bir xil tushuncha va tasavvurda ish tutishi kerak degan qoida ham xulosa ham yo'q-ku. Menimcha, ushbu olimaning munosabatidan uning nechog'li bilimi sayozligini ilg'ashimiz mumkin. Buyuk tanqidchilarimiz "Tanqidida ham xolislik zarur", "Aytar so'zimizga mas'ul bo'laylik" deya uqtirib kelishgan. O'zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov qayd

qilganidek: «Mustaqillik adabiyot kabi adabiy tanqidda ham eski qoliplar va iskanjalarni uloqtirib tashlab, erkin ijod qilishga imkon yaratdi. Menimcha, mustaqillikning adabiy tanqidga bergan eng katta ne'mati shundan iborat. Lekin ta'kidlab aytmoq kerakki, bu ne'mat-imkoniyat shaklida berilgan, uni voqelikka aylantirish, undan foydalanish esa to'laligicha ijodkorning o'ziga, munaqqidlarga bog'liq. Ular mas'uliyatni to'la tushunib, butun kuchlarini safarbar etib, mustaqil vatanga munosib mustahkam va yuksak jur'atli va ta'sirchan adabiy tanqid yaratmoqlari kerak»[12,229]. Sinovdan o'tgan tanqidchiligimizdagi nazariy tafakkurlarimizda haligacha "almisoqdan qolgan mitti armon"lar borligi ongli ziyolini biroz o'ylashga majbur etadi. Axir, Yurtboshimiz aytganidek, "Jahon adabiyoti va tafakkuri darajasida fikrlamog'imiz va shunga monand izlanmog'imiz kerak"-ku. Yangilanayotgan badiiy tafakkurga qaysi mezonlardan kelib yondashmoq zarur? Tanqidchilikning nurli tadrijiy takomilida qaysi tushuncha va qoidalar bilan ish tutishni maqsad qilib olmoq darkor? Bugungi yaratilayotgan asarlarni qay yo'sinda badiiyat mezonlari asosida kashf etmoq kerak? Albatta, savollar ko'p. Javoblar esa undan ham dahshatli. Xullas "Muvozanat" bo'yicha bahs qilingan maqola va risolalarni xulosalasak, atoqli adib va munaqqidlarimiz vaqtida munosib bahosini berdilar. Endi U.Hamdam ijodiy olamida shakllanayotgan romaniy tafakkur unsurlari, izlanishlari bir qadar jahon adabiyoti va estetikasi bilan yaqindan tanishuvi ham alohida sabab bo'lishini unutmasligimiz darkor. Har qanday ijodkor o'zidan oldingi salafdagi adib va shoirlar yaratilari, ijod laboratoriyalari bilan yaqindan tanishadi.

Xususan, U.Hamdam jahonning bir qator ilg'or so'z zargarlari-mohiyat kashshofi J.Rumiyning "Ichindagi ichindadir" asari A.Kamyuning "Begona", O.Bal'zakning "Inson komediyasi" Tolstoy, Dostoyevskiy, Turk adabiyoti namunalarini jiddiy mutolaa qilishi barobarida uning tafakkur dunyosi, ruhiyat olami yanada yuksaldi. Negaki, adib izlanishlarida o'ziga xos uslub tanlay bildi. Uning romanlari ana shu kabi jihatlari bilan boshqa zamondosh nosirlar ijodidan tubdan farq qilib turadi. Bu borada bir qancha bahs talab she'riyat ilmiga doir maqolalari, monografiya va suhbatlari bilan adabiy jamoatchilik oldida qizg'in bahs-munozara uyg'onishiga sabab bo'ldi. Bu kabi e'tiroflar U.Hamdam ijodini hali adabiyotshunoslik ilmi to'laligicha jahon estetik tafakkuri va yangilanayotgan adabiy tanqidchilik asosida kashf etib berolganicha yo'q. Ammo M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, P.Qodirov, U.Normatov, Q.Yo'ldoshev, A.Rasulov D.Quronov, Sh.Rizayev kabi adabiyotshunos olimlar maqolalari va suhbatlarida, shuningdek Z.Pardayeva, M.Pirnazarova singari olimlar o'zlarining dissertatsion tadqiqotlarida atroflicha, qiyosiy jihatdan o'rganadi. Bu esa o'z navbatida bir qadar U.Hamdam ijodiy jarayonining ma'lum qirralarini yoritishga javob beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, U.Hamdam she'riyat ilmini ham juda chuqur biladigan olimlarimizdan biridir. Uning ikki minginchi yillar adog'ida «30 – yillarda sof lirika

muammosi» nomli nomzodlik dissertatsiyasida Choʻlpon, Oybek, H.Olimjon kabi oʻnlab sheʼriyatimiz dargʻalari ijodini jahon va yangicha estetik tafakkur nazariyasi bilan jiddiy tadqiq qiladi. 2002-yilda chop etilgan “Badiiy tafakkur tadriji” nomli monografiyasidan bu borada toʻliq tushuncha olishimiz mumkin. Olimning bir paytlar yozgan “Ruh ekologiyasi” nomli maqolasida bugungi tahlikali zamonda yashayotgan bashariyatning oldida koʻndalang boʻlib turgan savolga oʻz munosabatini bildirishida ham eʼtiborga molik jihati shundaki, oʻta dolzarb shiddat bilan yopirilib kirib kelayotgan globallashuv texnikasining zararli oqibatlari xususida jiddiy fikrlar yuritadi. Ayniqsa, bu xususiyatlar “Yangilanish ehtiyoji” kitobida bir qancha maqola va suhbatlarida yorqin oʻz ifodasini topgan. Shu jihatdan adabiyotda mavjud qoidalar adib tasavvurida boshqacha ruhiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент, “Янги нашр”, 2010. –Б 299.
2. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент, “Янги нашр”, 2010. –Б 313.
3. Ҳамдам Улуғбек. Исён ва итоат. –Б 268.
4. Куронов Д. Адабий жараёнда “Мом синдроми”, - Тошкент, “Академнашр”, 2010-йил. –Б 244.
5. Йўлдошев Қ. Англашнинг узун йўли. Қаранг: Мустақиллик давр адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент, Гофир Ғулوم номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2006-йил. –Б 234.
6. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: «Шарқ», 2004. –Б 301.
7. Қўшжонов М. Шиддат билан ёзилган роман. У.Ҳамдам. Мувозанат. – Т.: «Минҳож», 2004. –Б 258.
8. Куронов Д. Адабий жараёнда «Мом» синдроми. –Т.: «Академнашр», 2010. –Б 138.
9. Карвонли Ҳ. Илғаб бораётир мени фасллар. –Т.: «Янги нашр» нашриёти, 2010. –Б 254.
10. Расулов А. Бадийлик безавол –янгилик. –Т.: «Шарқ». 2007. –Б 314.
11. Чориева М. «Баҳс». Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2003. 17 январ.
12. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Т.: Шарқ, 2004. –Б 254.